

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Ped.132.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

YULDASHEV ELYORJON SODIQOVICH

**YUNOGOGIKA MODULINI O‘QITISH JARAYONIDA
TALABALARNING SUGGESTIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Pedagogika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Yuldashev Elyorjon Sodiqovich

Yunogogika modulini o'qitish jarayonida talabalarning suggestiv qobiliyatini rivojlantirish metodikasi.....3

Юлдашев Элёржон Садикович

Методика развития suggestивных способностей студентов в процессе преподавания модуля юногогики.....24

Yuldashev Elyorjon Sodiqovich

Methodology for developing students' suggestive abilities in the process of teaching the Yunagogika module.....48

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....60

**QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Ped.132.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI

YULDASHEV ELYORJON SODIQOVICH

**YUNOGOGIKA MODULINI O'QITISH JARAYONIDA
TALABALARNING SUGGESTIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Pedagogika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Qo'qon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PHD/Ped4058 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Qo'qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.namdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Sobirjon Soxib o'g'li
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abdullayev Safibullo Xabibullayevich
Pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Baxtixon Qo'chqarbayevna
Pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi phd.03/29.12.2022.ped.132.02 raqamli ilmiy kengash 2025-yil «11» 11 soat dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi 23-uy. Tel.: (998) 73-542-38-38; faks: (998) 69-542-11-43; e-mail: quqondu@mail.uz.)

Dissertatsiya bilan Qo'qon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi 23-uy. Tel.: (998) 73-542-38-38.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «29» *noyabr* kuni tarqatildi.
(2025 yil «29» 11 dagi 29 raqamli reyestr bayonnomasi).



Ilmiy

N.Sh.Erkaboyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash raisi, p.f.d., professor

L.R.Xayitov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash Ilmiy kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

M.R.Kadirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d., professor

L.R.
Xayitov
M.R.
Kadirova

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash, ularning pedagogik mahoratini oshirish hamda pedagogik-psixologik qobiliyatlarini rivojlantirishga yangicha yondashuvlar dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarda talabalarning suggestiv qobiliyatini — ya'ni ruhiy va emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish orqali o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularni ergashtira olish, tashabbuskorlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tizimni yaratish zarurati vujudga kelgan. Shu bilan birga o'quvchilarda o'qituvchining imkoniyati va mahoratiga bo'lgan ijobiy bahoning shakllanishi dars samaradorligini ta'minlashning muhim omili ekanligiga doir yondashuvlar shakllanayotgan vaziyatda talabalarning suggestiv qobiliyatini oshirish muhim pedagogik vazifadir. Bundan ko'rinadiki, har bir jamiyatda ijtimoiy-psixologik muhitni sog'lomlashtirish, talabalarni ham ruhan, ham jismonan sog'lom qilib tarbiyalash vazifasi ahamiyatli hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida talabalarning suggestiv qobiliyatni takomillashtirishning samarali metod va vositalarini aniqlash borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishida ishonch va unga asoslangan faoliyat muhim ahamiyat kasb etib, sivilizatsiyaviy madaniyatning bir qismi sifatida umumbashariy qadriyatlar sifatida qadrlanib kelinmoqda. Shu nuqtai nazardan ham horijda talabalarni ya'ni bo'lajak pedagoglarni yangicha ruxda, muxitda, qiyofada tarbiyalash, ularda ta'lim oluvchilarning ruhiy irodaviy ta'sir ko'rsatish orqali o'zining imkoniyatlarini ko'rsatishga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa jahonda talabalarning suggestiv qobiliyatni takomillashtirishga ehtiyojni vujudga keltirmoqda.

O'zbekistonning ta'lim sifatini oshirish chora-tadbirlarida ham "mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta'lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish, professor-o'qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati monitoringini yuritish"¹, pedagog-kadrlar kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni tayyorlashning yangicha tizimini ishlab chiqish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Bunday vaziyatda bo'lajak pedagog o'quvchilarga ruhiy va emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsata olish, ularni yo'naltirish, to'g'ri muloqot o'rnatish, o'zining g'oyalari, fanni o'rganishga ergashtira olishga hizmat qiluvchi suggestiv qobiliyatni rivojlantirish va o'z imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun shart-sharoitlarni yaratib berishga qaratilgan tizimni yaratish zarurati yuzaga chiqmoqda. Bu orqali oliy ta'lim muassasalarida tahsil

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги "Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокчини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-3775-сон Қарори. — Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами: 07/18/3775/1313-сон. 06.06.2018 й.

olayotgan talabalarni kasbiy malakasini rivojlantirish, ularni global axboriy makonda, turli g'oyalar va faoliyatlar bilan chalg'ish imkoniyati ko'p bo'lgan sharoitda o'quvchilarni fanlarni o'zlashtirishga, ilm olishga safarbar qilishning yangi imkoniyatlarini yaratishga harakat qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida", 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son, 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I-yo'nalishi – "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda talabalarning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida o'rganish masalalari H.Abdukarimov, A.Mamajonov, N.Muslimov, B.Rahimov, N.Sayidahmedov, O.Tolipov, Sh.Sharipov, N.Shodiev, Ya.Haydarov, O.Haydarovalar kabi pedagog olimlar tadqiq qilganlar.

MDH mamlakatlarida innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida o'qituvchilarda o'z-o'zini ijodiy faolashtirish, kreativ ishlanmalarni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilga erkin ta'lim muhitini tashkil etish V.A.Slastenin, G.Chijakova, I.Ridanova, Yu.Kruglovalarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan. Osiyo mamlakatlarida talabalarda suggestiv qobiliyatni takomillashtirish masalalarini olimlar Yili Sun, Saadi Sami, Sadih Mahmudiy, Sarhad Aghaiy, Yakup Kochlar o'z izlanishlarida tahlil qilganini e'tirof etish kerak.

G'arb davlatlarida pedagoglarning suggestiv qobiliyatni takomillashtirish masalasi olimlar I.Martin, A.Vett, E.Zadarko, J.Yunger, Z.Barabas, D.Braunlar tomonidan tadqiq etilgan.

Biroq, Yunogogika modulini o'qitish jarayonida talabalarning suggestiv qobiliyatini rivojlantirish masalasi alohida monografik planda o'rganilmagan. Mazkur tadqiqotimiz ushbu muammoning ilmiy-amaliy tadqiqiga bag'ishlangan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qo'qon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq TY-01. "Innovatsiyalarni ta'lim tizimiga joriy etishning muammo va yechimlari (2017-2030-yy.)" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Yunogogika modulini o'qitish jarayonida talabalarning suggestiv qobiliyatini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalarni yaratish.

Tadqiqotning vazifalari:

Yunogogika modulini o'qitish jarayonida talabalarning suggestiv qobiliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari auto-trening seminarlarning intensivligi, pedagogik psixologik treninglar, autogen mashqlar orqali aniqlashtirish;

Yunogogika modulini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy faoliyatga oid kompetensiyalari hamda kreativligini oshirishga qaratilgan ta'lim vositalarining didaktik, o'quv metodik, diagnostik, intellektual imkoniyatlari "Yunogogika" modulining mazmuniga singdirish orqali takomillashtirish;

Yunogogika modulini o'qitish jarayonida talabalar suggestiv qobiliyatini rivojlantirishning redagogik shart-sharoitlar bilan belgilanadigan va mantiqiy-dialektik birlikda bo'lgan suggestivlikning nazariy bilimlarni, suggestiv harakatlardan xabardorlik va bajarilgan harakatlarining sifati, motivatsiya hamda suggestiv qobiliyatning yangi vaziyatlarda refleksiv, adaptiv, darajalar doirasida baholash orqali asoslash;

Yunogogika modulini o'qitish jarayonida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarida suggestiv qobiliyatni rivojlantirish yunogogika fanini o'rganishning raqamli o'qitish shakllari va usullarini maqsadli tanlashni o'z ishiga oluvshi faoliyatli – motivatsion –intellektual indikatorlar tizimini ishlab chiqish orqali takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida pedagogika ta'lim yo'nalishida Yunogogika modulini o'qitish jarayonida talabalarning suggestiv qobiliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning rredmeti Yunogogika modulini o'qitish jarayonida talabalarning suggestiv qobiliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid metod, shakl va vositalarni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, tanqidiy-qiyosiy tahlil, diagnostik (anketa, suhbat, so'rov), tajriba-sinov, tasniflash, loyihalash, matematik-statistik tahlil, modellashtirish va umumlashirish

metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarining suggestiv qobiliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari auto-trening seminarlarning intensivligi, pedagogik psixologik treninglar, autogen mashqlar orqali aniqlashtirilgan;

suggestiv qobiliyatni rivojlantirish orqali talabalarining kasbiy faoliyatga oid kompetensiyalari hamda kreativligini oshirishga qaratilgan ta'lim vositalarining didaktik, o'quv metodik, diagnostik, intellektual imkoniyatlari "Yunogogika" modulining mazmuniga singdirish orqali takomillashtirilgan;

talabalar suggestiv qobiliyatini rivojlantirishning redagogik shart-sharoitlar bilan belgilanadigan va mantiqiy-dialektik birlikda bo'lgan suggestivlikning nazariy bilimlarni, suggestiv harakatlardan xabardorlik va bajarilgan harakatlarining sifati, motivatsiya hamda suggestiv qobiliyatning yangi vaziyatlarda refleksiv, adaptiv, darajalar doirasida baholash orqali asoslangan;

talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarida suggestiv qobiliyatini rivojlantirish yunogogika fanini o'rganishning raqamli o'qitish shakllari va usullarini maqsadli tanlashni o'z ishiga oluvshi faoliyatli – motivatsion –intellectual indikatorlar tizimini ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan .

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

suggestiv qobiliyatning tashkiliy-redagogik jarayonlari, talabalarining kasbiy etikasining rivoji va takomilidagi o'rni yoritilgan; o'qitishda intellekt kartaning mohiyati, ilmiy va metodik ahamiyati, afzalliklari suggestivlik mavzusi misolida yoritilgan, intellekt karta yaratish yuzasidan metodik tavsiyalar berilgan;

"Yunagogika" nomli darslik yaratilgan;

talabalarining suggestiv qobiliyatini takomillashtirishga doir ta'lim texnologiyalari, interfaol usullar asosida ilmiy-metodik taklif va tavsiyalar ishlab shiqilgan;

yunogogika modulini o'qitishda komretensiyaviy yondashuv asosida talabalarda suggestiv qobiliyatini takomillashtirish bo'yisha metodik tadbirlar tizimi tavsiya yetilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonshiligi qo'llangan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik usullar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy yetilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "qobilyat", "suggestiv qobilyat" tushunchalarining mazmun-mohiyati pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etilganligi, yunogogika modulini o'qitish jarayonida talabalarining suggestiv qobiliyatini

rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ta'lim texnologiyalarini ularning ta'lim va tarbiya jarayonida samarali foydalanish mazmuni hamda suggestiv qobiliyatning shakllanganlik darajasini baholash mezonlari va sifat ko'rsatkichlari ishlab chiqilganligi, taklif yetilgan tizim, metodika, baholash mezonlaridan oliy ta'limning talabalarida mutaxassislik fanlarini o'qitish mazmuni va metodik asoslarini takomillashtirish hamda suggestivlik sohasini o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab shiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalaridan oliy ta'limning talabalari ushun malaka talablari hamda o'quv dasturlarini takomillashtirish, darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratish, suggestivlik bo'yisha maxsus o'quv kurslarini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb yetishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yunogogika modulini o'qitish jarayonida talabalarining suggestiv qobiliyatini rivojlantirish metodikasi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

talabalarining suggestiv qobiliyati rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari auto-trening seminarlarning intensivligi, pedagogik psixologik treninglar, autogen mashqlaridan foydalanishga doir tavsiyalaridan FZ-2020010829 "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 11-maydagi 04/11-2836-son dalolatnomasi) Natijada talabalar suggestiv qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan noan'anaviy ta'lim muhitini yaratish yuzasidan interaktiv mashg'ulotlar ishlanmalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

suggestiv qobiliyatni rivojlantirish orqali talabalarining kasbiy faoliyatga oid kompetensiyalari hamda kreativligini oshirishga qaratilgan ta'lim vositalarining didaktik, o'quv metodik, diagnostik, intellektual imkoniyatlari "Yunogogika" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining.2024-yil 4 martdagi 55-sonli nashr ruxsatnomasi) Natijada talabalar suggestiv qobiliyatini rivojlantirish jarayonida qo'llaniladigan innovatsion metod va texnologiyalarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

talabalar suggestiv qobiliyatini rivojlantirishning redagogik shart-sharoitlar bilan belgilanadigan va mantiqiy-dialektik birlikda bo'lgan suggestivlikning nazariy bilimlarni, suggestiv harakatlardan xabardorlik va bajarilgan harakatlarining sifati, motivatsiya hamda suggestiv qobiliyatning yangi vaziyatlarda refleksiv, adaptive, darajalar doirasida baholashga oid takliflari "Yunogogika" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining.2024-yil 4 martdagi 55-sonli nashr ruxsatnomasi) Natijada talabalar

suggestiv qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayondan maqsadli va rejali foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan va optimal ilmiy-pedagogik, nazariy asoslari yaratilgan.

talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarida suggestiv qobiliyatini rivojlantirish yunogogika fanini o'rganishning raqamli o'qitish shakllari va usullarini maqsadli tanlashni o'z ishiga oluvshi faoliyatli – motivatsion – intellectual indikatorlar tizimini ishlab chiqishga oid tavsiyalaridan O'zbekiston Milliy "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari" eshittirishlarining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 28-maydagi 05-09-751-son ma'lumotnomasi). Natijada suggestiv qobiliyat asosida talabalarni ruhiy va emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatishning pedagogik motivlarini takomillashtirishga sharoit yaratgan.

Tadqiqot natijalarining arrobatsiyasi. Tadqiqot doirasida qo'lga kiritilgan ilmiy natijalar 3 ta resrublika va 4 ta xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ye'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yisha jami 22 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini shor yetish tavsiya yetilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan 7 tasi resrublika, 5 tasi xorijiy jurnallarda shor yetilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, ush bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, 133 sahifani tashkil yetadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan OTMning ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi bayon etilgan, maqsadi, vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchiligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "Talabalarining suggestiv qobiliyatini rivojlantirish metodikasini ilmiy-nazariy asoslari" nomli birinchi bobining "Talabalarining suggestivlik qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati va amaliyotdagi holati" nomli 1-bo'limida suggestivlik fanda bir necha jihatlar bo'yicha: fiziologik, psixologik, tibbiy organilganligi, yunogogikada o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatish usullarini bilish va uni qo'llash imkoniyati dolzarb

muammolardan biri hisoblanishi asoslab berigan.

Bir qator xorijlik olimlar tomonidan suggestivlikka oid mexanizm tushunchalari (I.P.Pavlov, I.M.Sechenov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, S.L.Rubinshteyn, A.A.Bodalev, K.I.Platonov, V.N.Myasishchev, A.M.Svyadosch) ishlab chiqilgan. Suggestiv faoliyatni odamlarning muloqot jarayonida o'zaro ta'sir qilish omili sifatida (V.A.Bakeev, A.G.Kovalev, V.N.Kulikov, A.V.Petrovskiy, K.K.Platonov, B.F.Porshnev va boshqalar) e'tirof etilgan. Pedagogik jarayonda suggestivlikning rolini tahlil qiluvchi asarlar(Guyo, V.M.Bexterev, P.P.Blonskiy, S.V.Kravkov, A.S.Makarenko) muhim ahamiyatga ega. Su o'rinda takidlash joizki talabalarning o'z-o'zini tarbiyalash tizimida o'z-o'zini gipnoz qilish (I.E.Shvarts, L.V.Gasheva, A.S.Novoselova, B.K.Moiseev, Z.A.Cherepanova va boshqalar) masalalariga oid bir qator tavsiyalar ishlab chiqilgan. Zikir etilgan tadqiqotlar zamonaviy fan yutuqlari nuqtai nazaridan suggestiv qobiliyat metodikasini shakllantirish va shu bilan birga, uning tarixi va nazariyasini hisobga olgan holda takomillashtirishga yordam beradi.

Tadqiqotning maqsadlaridan birini talabalarda rivojlanishini kuzatish ekanligini inobatga olgan holda yunogogikada ta'sir ko'rsatishdan foydalanish muammolarini ko'rib chiqilgan. Bu jarayonda asosan quyidagi jihatlarga e'tibor qaratilgan:

1. Muammoning tarixiy-pedagogik tavsifi;
2. Hozirgi sharoitda pedagogik jarayonda ta'sir ko'rsatishdan foydalanishni o'rganish tahlili;
3. "Ta'sir ko'rsatish", "Ta'sirlanish" tushunchalarini tahlil qilish.

Suggestiv qobiliyat nazariyasiga oid bir qator qoidalarni: 1) ta'sir ko'rsatishni amalga oshirish vakolatining ahamiyati; 2) boshqalarga singdirilishi kerak bo'lgan fikrlarni qabul qilish va baham ko'rish zarurati; 3) ta'sir ko'rsatish kuchining yuz ifodalari bilan kuchayadigan ovoz ohangiga bog'liqligi sanab o'tilgan. Pedagoglar inson tabiatiga ko'proq hurmat ko'rsatishlari kerakligi, va o'z o'quvchilaridagi ichki hissiyotni bostirmaslikka va rivojlantirishga harakat qilishlari, ta'lim-tarbiya jarayonlarida ongli va ishonch bilan ta'sir ko'rsatish o'quvchilarning axloqiy meyorlar doirasida tarbiyalanishini ta'minlashi ilmiy asoslangan.

Birinchi bobning **"Yunogogika fanini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari"** nomli 2-bo'limida talabalarning suggestiv qobiliyatining mohiyatini ochib berishga yordam beradigan, nafaqat ularning tuzilishini tavsiflovchi, balki namoyon bo'lish xususiyatlarini, bog'liqligini va boshqa kasbiy pedagogik fazilatlar bilan bog'liqligini aniqlashga yordam beradigan asosiy nazariy va uslubiy qoidalar kiritilgan:

1. Ta'sir ko'rsatish qobiliyatini umumiy pedagogik tayyorgarlikning elementi sifatida ko'rib chiqish;

2. Yunogogik masalalarni bosqichma-bosqich hal qilish algoritmi orqali boshqarish tizimini tavsiflash.

Suggestivlikning mohiyatini ta'sir ko'rsatish qobiliyati asosidagi hodisa sifatida ko'rib chiqish orqali kerakli bilimlar ro'yxatini aniqlangan:

1. Ta'sir ko'rsatish ta'lim usuli sifatidagi bilim va uning metodlar tizimidagi o'rni; ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari, uning maqsad va vazifalari, ta'sir ko'rsatish ko'nikmalarining operativ tarkibi haqidagi bilim.

2. Ta'sir ko'rsatish nazariyasi sohasidagi bilimlar: ta'sir ko'rsatishning mexanizmi; ta'sir ko'rsatish turlarining tasnifi va ulardan pedagogikada foydalanish imkoniyatlari; qarshi ta'sir ko'rsatish jarayonining xususiyatlari va uning pedagogik jarayon uchun ahamiyati;

3. Shaxs tuzilishining tarkibiy qismi sifatida ta'sir ko'rsatish qobiliyati haqidagi bilim; o'quv jarayonini tashkil etishda ta'sir ko'rsatish darajasini aniqlash va ikkinchisini hisobga olish usullarini bilish;

4. Ta'sir ko'rsatish texnologiyasi va uni samarali amalga oshirish shartlari haqida bilim.

Suggestiv qobiliyat orqali talabalarning professional aqliy va amaliy harakatlarining umumiylikni tushuntirib berilgan, unga o'quvchining atrofdagi dunyoga bo'lgan qarashlari va munosabatlarini shakllantirish, o'zini o'zi boshqarish va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonlarini faollashtirish uchun ta'sir ko'rsatishdan foydalanishga imkon berishi va shu tariqa o'quvchining ongi va xulq-atvorining har qanday tomonlarini o'zgartirish va to'g'rilash imkoni mavjudligi yoritib berilgan hamda quyidagicha mualliflik ta'rifi shakllantirilgan: "Suggestiv ko'nikmalar o'quvchilarda ijobiy hissiy holatlarni uyg'otish uchun mo'ljallangan. Bu ko'nikmalarning ko'rsatkichi o'qituvchining o'zi bo'lib, u o'quvchilar faoliyati va munosabatlarining ma'naviy-axloqiy mohiyatiga kirib boradi va o'zaro munosabatlarda amalga oshiriladigan ta'sir ko'rsatish boshqa kasbiy va pedagogik ko'nikmalar: tashkiliy, kommunikativ, pertseptiv, gnostik va boshqalar bilan uzviy bog'liqligi tufayli o'quvchining rivojlanayotgan shaxsiga integral ta'sir ko'rsatadi". Birinchi bobning "**Talabalarning suggestiv qobiliyatini rivojlantirish metodikasining mazmuni, tuzilishi va yo'nalishlari**" nomli 3-bo'limida talabalarni **yunogogika** fani orqali suggestiv qobiliyatini, e'tiqodini va kasbiy ko'nikmalari orqali o'ziga xos fikrlash tarzi bilan ajralib tura olishi shart ekanligi, kasbiy faoliyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatlari pedagogning **suggestivligida** namoyon bo'lishi ochib berilgan.

Suggestivlik – bu sifat jihatidan yangi, o'qituvchidan mas'uliyat va odob-axloqni talab qiladi. O'qituvchilar talabalarning huquq va erkinliklarini buzmasdan kerakli natijalarga erishish uchun chegaralar va samarali strategiyalarni bilishlari kerak. Talabalarda suggestiv qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi

ularning kasbiy tayyorgarligining muhim jihati hisoblanadi. Suggestiv qobiliyat - bu boshqa odamlarning fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlariga ta'sir qilish qobiliyati. Chunki, pedagogika fani o'qituvchisi shunday noyob, qaytarilmas, andozasiz fikrlash sharoitidagina mustaqil fikrlashga o'rganadilar va fanni boshqa fanlardan ajrata oladilar. Suggestivlik, talabalar shaxsining rivojlanishida uning faolligi, mustaqil fikrlashi, mustaqil faoliyati, ya'ni mustaqil ta'lim va mustaqil ma'lumotlar olishi hamda o'zini o'zi tarbiyalashga xizmat qiluvchi jarayonlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Talabalar shaxsining rivojlanishida muhim hisoblangan quyidagi suggestivlik jarayonlari keltirilgan:

1. Gipnoz: chuqur yengillik yaratish va o'quvchining ongini o'zgartirish uchun gipnoz usullaridan foydalanish. Bu o'qituvchiga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi va o'quvchini maqsadlarga erishishga undaydi.

2. Ijobiy dasturlash: talabaning ijobiy fikrlari va e'tiqodlarini mustahkamlash uchun ijobiy bayonotlar va tasdiqlardan foydalanish. Bu o'qituvchiga ijobiy muhit yaratishga va o'quvchining o'zini o'zi qadrlashini oshirishga yordam beradi.

3. Metaforalar: ma'lum saboq yoki ma'nolarni etkazish uchun majoziy iboralar va hikoyalardan foydalanish. Metaforalar o'quvchining ong ostiga ta'sir qilishning samarali usuli bo'lib, ularga materialni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam beradi.

4. Ijobiy modellashtirish: o'quvchilarni taqlid qilishga ilhomlantirish uchun o'qituvchi tomonidan kerakli xatti-harakatlar va munosabatlarni ko'rsatish. O'qituvchilar o'z o'quvchilari uchun namuna bo'lishlari va ijobiy ko'nikmalar va qadriyatlarni rivojlantirishga yordam berishlari mumkin.

5. Namoyish qilish: o'quvchilarning o'z maqsadlariga erishish va motivatsiyasini oshirish uchun aqliy tasvirlar va vizual tasvirlardan foydalanish. O'qituvchilar o'quvchilarga o'zlarini muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatga erishishda tasavvur qilishlariga yordam berish uchun vizual mashqlar o'tkazishlari mumkin.

Dissertatsiyaning "**Talabalarning suggestiv qobiliyatini rivojlantirishning metodik shart-sharoitlari**" nomli ikkinchi bobida suggestiv qobiliyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim jarayonlarida talabalar suggestiv qobiliyatini takomillashtirish tizimi, texnologiyalari va metodlari yoritilgan.

Bobning "**Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida Yunogogika modulini o'qitishning mavjud holati va yondashuvlar**" nomli 1-bo'limida talabalarning Yunogogika moduli orqali suggestiv qobiliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan. Yunogogika moduli orqali talabalarning suggestiv qobiliyatini rivojlantirish uchun ustuvor yo'nalishlar sifatida quyidagilar to'g'risida mulohaza yuritilgan.

O'z-o'zini tartibga solish. O'z-o'zini tartibga solish, shaxsiy rivojlanish va maqsadga yo'naltirilgan yashash uchun muhim bo'lgan bir kontsepsiya. Bu kontsepsiya insonning o'zini tuzatish, mustaqil ravishda faol bo'lishi, maqsadlarga erishish va o'z hayotini boshqarishni o'rganishni talab qiladi.

Hissiy intellekt. Hissiy intellekt, insonlarning o'zi va boshqalar bilan muloqotda bo'lish, o'zaro aloqalarni tushunish, o'z hissiyotlarini tushunish va boshqalarning hissiyotlarini tushunishga asoslangan intellektual qobiliyatdir. Hissiy intellekt insonlarga o'zlarini va boshqalar bilan muloqotda bo'lish, emotsiyalarga javob berish, boshqalarning hissiyotlarini tushunish va o'zining hissiyotlarini boshqalarga ifoda qilish qobiliyatini o'rganish va rivojlantirish imkoniyatini beradi. Hissiy intellektga ega insonlar boshqalar bilan muloqotda bo'lishda muvaffaqiyatli bo'ladi, o'zlarini va boshqalar bilan bog'liqlikda his qilishlari va emotsiyonlarni tushunishlari yaxshi rivojlanadi. Hissiy intellekt insonlar orasidagi munosabatlarni kuchaytiradi va boshqalar bilan muloqot jarayonida yordam beradi. Hissiy intellektning rivojlanishi va o'zlashtirilishi insonning o'zini va boshqalar bilan muloqotda bo'lish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi va insonning o'zini boshqalar bilan yaxshi tushunishga imkoniyat yaratadi.

O'z-o'zini aks ettirish. Shaxsiy o'sish uchun o'z-o'zini aks ettirishning ahamiyati juda katta. O'z-o'zini aks ettirish, o'zingizni tushunish, o'z fikrlaringizni va hissiyotlaringizni tushunishga yordam beradi. Bu, o'z fikrlar va hissiyotlaringizni boshqalar bilan ulashish va o'zlashtirilgan muloqotlarda muvaffaqiyatli bo'lishingizga yordam beradi.

Bobning 2-bo'limida **“Yunogika modulini o'qitish jarayonida talabalarning suggestiv qobiliyatini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari”** yoritilgan. Suggestivlik pedagogik faoliyatning samarali va ta'limning sifatli bo'lishining asosi hisoblanadi. Shu o'rinda talabalarda suggestiv qobiliyatni rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etigan va sharhlangan:

1. **Psixologik tayyorgarlik:** talabalar psixologiya asoslarini o'rganishlari va odamlarning ongi va xatti-harakatlariga qanday omillar ta'sir qilishini tushunishlari kerak. Bu ularga o'z o'quvchilarini yaxshiroq tushunishga va Suggestiv usullardan samarali foydalanishga yordam beradi.

2. **Muloqot ko'nikmalarini o'rgatish:** bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarga ta'sir qilish uchun ular bilan samarali muloqot qila olishlari kerak. Ular savollar berishlari, faol tinglashlari, og'zaki bo'lmagan signallardan foydalanishlari va hokazo.

3. **Ta'lim jarayonida suggestiv usullardan foydalanish:** talabalar gipnoz, pozitiv dasturlash, metafora va boshqalar kabi turli suggestiv usullarni bilishi va qo'llay olishi kerak. O'quvchilarga ta'sir qilish uchun va ularning ochiq bo'lishi uchun o'qituvchi ishonch va hurmat muhitini yarata olishlari kerak.

4. **Amaliy mashqlar va mashg'ulotlar:** talabalar amaliyotda suggestiv usullarni qo'llagan holda mashq qila olishlari kerak. Bu rolli o'yinlar, treninglar yoki tajribali o'qituvchilarning kuzatuv shaklida bo'lishi mumkin.

5. **Mulohaza va refleksiya:** Talabalar suggestiv usullarni qo'llashda o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini bilishlari kerak. Ular doimiy refleksiya va o'z qobiliyatini rivojlantirishga tayyor bo'lishlari kerak.

Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarida talabalarning suggestiv qobiliyatini takomillashtirishning interfaol texnologiyalardan foydalanish zarurligi asoslangan va bir qator interfaol **metodlar** keltirilgan.

"Suggestiv usullardan foydalanish" daqiqasi. "Suggestiv usullardan foydalanish" daqiqasini har bir ma'ruza yoki amaliy hamda seminar mashg'ulotlarida o'tkazish mumkinligi, bu jarayonlarni mavzuga doir tushunchalar miqdori va murakkablik darajasiga qarab, 6-10 daqiqa davomida o'tkazish tavsiya yetilgan. Bu daqiqalar davomida mavzuga doir tushunchalarning tarixiy-yetimologik manbasi, asl va terminologik ma'nosi yuzasidan bilimlar berilgan hamda misollar asosida dalillangan. Bu, albatta, talabalarga mavzuga doir suggestiv usullarni tushuntirish va o'rgatishda yaxshi samara berishi izohlangan.

Ma'ruza darslarida **"Suggestiv usullardan foydalanish"** daqiqasi davomida talabalarga yangi mavzuga doir suggestiv usullar havola yetilishi yoritib berilgan. Holat tahlil qilinib, talabalarning suggestiv usullarga doir mavjud bilimlari takrorlash asosida mustahkamlanishi, yangi bilimlar bilan boyitilishi, bu yangi ma'ruza mavzusini talabalar tomonidan oson, mukammal o'zlashtirilishini ta'minlashi ochib berilgan.

Aniqrog'i, ma'ruza boshida o'tkazilgan **"Suggestiv usullardan foydalanish"** daqiqasi talabalarni mavzuni o'rganishga tayyorlaydi, ularning suggestiv qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qituvchi mavzu va uning rejasini taqdim yetgach, "Suggestiv usullardan foydalanish" daqiqasini o'tkazadi. Bu jarayonda mavzuga doir tayanch so'z va iboralar, ya'ni usullar talabalarga havola yetiladi. "Suggestiv usullardan foydalanish" daqiqasini **"Aqliy hujum"**, **"Muammoli vaziyat"**, **"Klaster"**, **"Zinama-zina"**, **"Kichik guruhlarda ishlash"** usullari bilan integrativ holatda o'tkazish mumkinligi yoritib berilgan.

Amaliy va seminar mashg'ulotlarida **"Suggestiv usullardan foydalanish"** daqiqasi ma'ruzada olingan ilmiy-nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy jihatdan dalillash, asoslash, izohlash, tahlil qilish imkonini beradi. **"Sharhlash usuli"**da talaba tomonidan o'rganilgan nazariy ma'lumotlar, fanga oid suggestiv usullar amaliyotda keng qo'llaniladi, talabalarda ishonch va hurmat muhitini yarata olishni rivojlantirishga, mutaxassisligi bo'yicha olgan bilimlarini ish faoliyatida qo'llashga zamin hozirlaydi.

Talabalarning suggestiv qobiliyatini takomillashtirishning nazariy va o'quv

bosqichini amalga oshirish uchun 2-kursda “Yunogogika” fani darslarida suggestiv usullardan foydalanish metodi, talabalarda suggestiv qobiliyatni rivojlantirishga, bilimlarini amaliyotga tatbiq yetishga xizmat qiladi. Dars jarayonida faol qoʻllanuvchi metodlardan “Amaliy mashqlar va mashgʻulotlar” taʼlimiy oʻyini, “Mulohaza va refleksiya” oʻyini, “Toʻgʻrisini tanlang” oʻyini, “Kichik guruhlarda ishlash” metodi, “Davom yettir” metodi, “Tushunchalar tahlili” metodi, “Qiyoslash” metodi, “Blis-soʻrov” metodlarini amalga oshirish bosqichlari yoritib berilgan:

1. Dastlab talabalarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, yaʼni tarqatma materiallar alohida-alohida tarqatiladi va talabalardan materialni sinchiklab oʻrganish talab yetiladi. Shundan soʻng, talabalarga toʻgʻri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” qatoriga belgilash kerakligi aytiladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Keyingi bosqichda oʻqituvchi ishtirokchilarga besh kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh aʼzolarini oʻz fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga taʼsir oʻtkazib, oʻz fikrlariga ishtirish, kelishgan holda bir toʻxtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” boʻlimiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar oʻz ishlarini tugatgach, toʻgʻri harakatlar ketma-ketligi oʻqituvchi tomonidan oʻqib yeshittiriladi, va oʻquvchilardan bu javoblarni “toʻgʻri javob” boʻlimiga yozish soʻraladi.


4. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu boʻyicha oʻzlashtirish darajalari aniqlanadi.

Talabalarga namunaviy va ishchi oʻquv dasturi asosida mustaqil ish mavzulari, ularni bajarishda foydalanish uchun adabiyotlar, jumladan, suggestiv qobiliyat metodikasini takomillashtirishga yoʻnaltirilgan topshiriqlar, ularni bajarish yuzasidan metodik tavsiyalar beriladi.

Talabalarga taʼsir koʻrsatish usullarini oʻrgatish orqali suggestiv qobiliyat metodikasini takomillashtirish modeli oʻzaro bogʻliq va bir-birini toʻldiruvchi – maqsadli, tashkiliy-mazmunli, texnologik-jarayonli, tashxislash va natijaviy qismni oʻz ichiga oladi (1-rasm). Metodik modelni ishlab chiqishda muntazamlilik, izchillik, nazariya va amaliyotning uzviyligi, uzluksizlik, fanlararo integratsion oʻqitish, koʻrgazmalilik, individuallik, fundamental va amaliy yoʻnalganlik, pedagogik hamkorlik singari tamoyillardan asos sifatida foydalandik. Boʻljak yunogogika oʻqituvchilarini suggestiv qobiliyatini rivojlantirish modelidan tizimli va samarali foydalanish orqali pedagogika taʼlim yoʻnalishi talabalarining malaka talablarini toʻliq oʻrganib chiqiladi, fanlararo integratsiyani taʼminlashga eʼtibor qaratiladi, oʻqitishning didaktik taʼminotini takomillashtiriladi, oʻqitish davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol taʼlim metodlaridan samarali foydalaniladi.

Bobning 3-boʻlimida **“Yunogogika modulini oʻqitish jarayonida**

talabalarning suggestiv qobiliyatini rivojlantirish modeli” masalasi yoritilgan.



1-rasm. Yunogogika modulini o'qitish jarayonida talabalarning suggestiv qobiliyatini rivojlantirish metodikasi takomillashtirish modeli.

Dissertatsiyaning “**Yunogogika modulini o‘qitish jarayonida talabalarning suggestiv qobiliyatini rivojlantirish metodikasining samaradorligi**” nomli uchinchi bobida olib borilgan ishlarning mazmun-mohiyati va natijalar tahlili berilgan.

Bobning 1-bo‘limida “**Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish**” yoritilgan. Talabalarning suggestiv qobiliyati metodikasini takomillashtirishning ahamiyati va samaradorligini oshirish, suggestiv qobiliyatni rivojlantirish modeli, tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy-nazariy qarashlarimizni amaliyotga tatbiq qilish maqsadida 2022-2025-o‘quv yillarida uch bosqich (o‘rganuvchi-tahliliy (2022-2023-o‘quv yili), shakllantiruvchi tajriba (2023-2024-o‘quv yili), yakunlovchi tajriba (2024-2025-o‘quv yili))da pedagogik tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlari Nizomiy nomidagi Toshkent DPI, Guliston DU, Qo‘qon DU, oliy ta‘lim muassasalari pedagogika ta‘lim yo‘nalishining 2-kurs talabalaridan 351 nafari jalb etildi.

Baholash mezonlari asosida respondent talabalarda suggestiv qobiliyat metodikasini takomillashtirishga qaratilgan jarayon samaradorligini bir necha darajalar bo‘yicha baholash kvalimetrik jihatdan to‘g‘ri deb topildi hamda samaradorlik ko‘rsatkichlari “yuqori”, “o‘rta”, “past” darajalar bo‘yicha baholandi.

Yuqori daraja – talaba o‘quv va kasbiy faoliyatda ta‘sir ko‘rsatish usullaridan faol, o‘rinli va unumli foydalanadi, ta‘sir ko‘rsatish usullarining ma‘no- mohiyati, kelib chiqishi, qo‘llanishiga doir vazifalarni bajarishga ilmiy yondashadi, natijalarni mustaqil tahlil yeta oladi, o‘quv jarayonlarida boshqalarga yordam bera oladi, suggestiv qobiliyat kasbiy faoliyatining zarurati yekanligini yaxshi anglaydi.

